



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Raximova Gulbaxor.,

²Bahriiddinova Yulduz., Amonov Xasan.

¹O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti filologiya fanlari nomzodi, dotsent

²O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute talabalari

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA JUVONMARDLIK TARBIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kaykovusning “Qobusnomा” asari hamda uning tarbiyaviy ahamiyati, juvonmardlik ta’riqati va unda ilgari surilgan g‘oyalar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zalar: Juvonmardlik, rostlik, to‘g‘rlik, tarbiya, xislat, aql, nasihat, axloqlilik, adolatlilik, ilm, qanoat, hikmat.

ВОСПИТАНИЕ ХРАБРОСТИ В РАБОТЕ “КАБУС-НАМЕ” КАЙКОВУСА

Аннотация: В данной статье представлен анализ произведения Кайковуса «Кобуснаме» и его просветительского значения, культа храбрости и выдвинутых в нем идей.

Ключевые слова: Храбрость, честность, правильность, воспитание, характер, ум, совет, мораль, справедливость, знание, довольство, мудрость.

THE EDUCATION OF COURAGE IN THE WORK OF KEIKAVUS “QABUS-NAMA”

Annotation: This article presents an analysis of Kajkovus’s work “Nightmare” and its educational significance, the cult of courage and the ideas put forward in it.

Key words: Bravery, honesty, probity, education, character, intelligence, advice, morality, justice, knowledge, contentment, wisdom.

KIRISH. Har bir millat o‘zining milliy merosi, umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan holda muqaddas va buyukdir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ana shu milliy meros va qadriyatlarga mos holda munosib ta’lim-tarbiya etmoq ham dolzarb va muhim jarayonlardan sanaladi. Shaxs shakllanib, avvalo, ma’naviy-ma’rifiy tomonlama to‘kis, mustaqil fikrga ega inson, keyingi navbatda esa jamiyatda o‘z o‘rnini topib, jamiyatning muhim bir bo‘lagiga aylanishi lozim.

Barchamizga ma’lumki, buyuk mutafakkirlarimiz farzand tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelganlar. Ularning asarlaridagi pand-nasihatlar har bir insonni yuksak darajada tarbiyalaydi va ma’rifat nurlari bilan bahramand etadi. Bunday javohirlar sirasiga Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Sa’diy Sheraziyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma” kabi durdona asarlari kiradi. Ushbu asarlar necha asrlar o‘tsa-da, o‘z qiymatini yo‘qotmay kelmoqda.

TADQIQ VA TALQIN. Badiiy adabiyotning shoh namunalaridan sanalgan Kaykovusning “Qobusnoma” asari yoshlarni voyaga yetkazmoq uchun muhim dalil va ko‘rsatmalarini o‘zida mujassam etgan ana shunday nodir asarlardan biridir. XI asrda yaratilib “Nasihatnoma”, “Qobusnoma”[1] nomlari bilan atalgan asar nafaqat o’sha davr, balki bugungi kunda ham yirik tarbiya manbayi bo‘lib xizmat qilmoqda. Asar xalqni, jumladan, yoshlarni katta hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk jamiyat a’zosi sifatida tarbiyalashda muhim qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi. Qirq to‘rt bobni o‘zida jamlagan asar insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Adib ilm olish va aqlni ulug‘lab ularni mol-u dunyodan ustun qo‘yadi va inson har yerda shu ikkisigagina tayanmog‘i kerakligi, ulargina kishini har qanday qiyin vaziyatdan xalos etmoqlikka qodirligini uqtiradi. “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa sa’y ko‘rguzgilki, mol bilan boy bo‘lgandan, aql bilan boy bo‘lg‘on yaxshirakdur, nedinkim, aql bilan mol jam etsa bo‘lar, ammo mol bilan aql o‘rganib bo‘lmas. Bilgil aql bir moldirk, uni o‘g‘ri olmas, u o‘tda yonmas, suvga oqmas, “al-adab surati aql”, - deya inson odobi aqlning belgisi ekanligini ta’kidlaydi. Haqiqatdan ham inson qanchalik boy-badavlat, to‘la-to‘kis bo‘lmasin, ammo uning aqli bo‘lmasa, topgan mollarini o‘z o‘rnida sarflashni bilmaydi. Bugungi kundalik hayotimizda ham boyning farzandi aqlsizligi sabab qashshoqlashganini va aksincha, kambag‘alning bolasi o‘z aql-u farosati ortidan boylik orttirgani holatini ko‘plab uchratganmiz. Adib mana shu hayotiy qonuniyatni yuksak badiyat asosida qalamga olgan. Asarning qirq to‘rtinchchi bobida juvonmardlik haqida so‘z yuritiladi. Kaykovus insoniylik xislatlarini uchga bo‘lgan holda birini aql, ikkinchisini rostlik va yana birini juvonmardlik deya nomlaydi. Boshqalarga beg‘araz yaxshilik qilish, o‘zida borini o‘zgalar bilan baham ko‘rish, muhtojlarga yordam berish, ma’naviy va jismoniy yetuklikka intilish insonni mol-u dunyodan ulug‘ tutish juvonmardlikning ifodasidir.

Insonning tanasi ko‘zga ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan moddalardan tashkil topgan murakkab majmua ekanligi, hayotda o‘t va suv bir-biriga zid qo‘yilgani kabi, kishining yaxshi va yomon fazilatlari ham bir-birini doimiy inkor etishini adib go‘zal satrlar ila ushbu bobda jam etadi. Dunyoda juvonmardlikni da’vo qilmagan hech odam yo‘q, lekin sen ular kabi be’mani da’vo qilmag‘in. Sen o‘z aql-u idroking bilan shunday o‘rinli, ochiq yo‘l tutginki, toki o‘zgalar sendan kamchilik va juvonmard emasligingga biror asos topa olishmasin. “Biror nomga sazovor bo‘lmoqchi bo‘lsang, bu nomga munosib bo‘l, shuning o‘zi yetadi” degan mazmunni adib o‘quvchiga yetkazib bera oladi. Asarda aytilishicha, “juvonmardlik asli uch narsadir: biri ulkim, aytg‘on so‘zingni o‘zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulkim, hayr ishni ilgari tutsang. Odamdag‘i qolg‘an barcha sifatlar bu uch narsa ostidadur. Aytgan so‘zingni o‘zing qilsang deganda adib biror va’da so‘z aytdingmi, albatta, uning ustidan o‘zing chiqishing kerak, deb nasihat qiladi. Rostlikka xilof qilmaslik – bu rost gap, rostgo‘y insonlarni qadrlash, ularning ketidan quvishlikni aytib o‘tyapti. Har yerda, har qanday vaziyatda baribir rostgo‘ylik g‘alaba qozonadi. Rost narsaga yolg‘onni aralashtirmaslik, ya’ni rostlikka xilof qilmaslik juvonmardlikning ikkinchi asosi ekanligi, so‘nggisi esa hayr ishni ilgari tutmoqdir. Albatta, hayrli, savobli ishlarni keying surib bo‘lmaydi. Biror hayr ishni boshidan tutdingmi, uni boshqa yumushlaringdan afzal bilib ilgariroq ado etishing kerak. Zero, insondan faqat yaxshilik qoladi. Adib nazdida shu uch xislatni o‘zida mujassam etgan insonni haqiqiy juvonmard deb aytish mumkin.

“Ey farzand, bilg‘ilki, bu kitobning necha joyida qanoatni zikr etdim va yana takror qilurman. Ammo hamisha diltang bo‘lmaslikni tilasang, qanoatlig‘ bo‘lg‘il, hasadchi bo‘limg‘il, toki vaqting hamisha xush bo‘lg‘ay. Nedinkim, barcha g‘annoklikning asli hasaddur. Bilg‘ilki falak gardishining ta’iridin odamga nek va bad yetar”. Ushbu jumlada yozuvchi insonlarni qanoatli bo‘lishlikka chorlaydi. Odam agar barcha ne’matlarga shukur qilsa, doim baxtli yashaydi. Yoki aksincha, qanoatsizlik ortidan hasad kelib chiqadi. Hasadgo‘y insonlar esa doim musibatlarga duchor bo‘ladi. Shuningdek, bu yorug‘ dunyoda yashar ekanmiz doim yaxshilikka intilishimiz, o‘zgalarga yomonlik qilmasligimiz kerak. Zeroki, bu dunyoda qilgan yaxshiligidimiz ham, yomonligimiz ham o‘zimizga ortig‘i bilan qaytadi. Qanoatsizlik bizni turli achinarli ko‘yga solishi mumkin. Bunga dalil sifatida Kaykovus hikoyat keltiradi. Unda bayon qilinishicha, bir faqirning o‘g‘li quruq nonga qanoat qilmay, bir bo‘lak holva uchun boyning bolasiga it bo‘lib, hurib beradi. Ushbu hikoyatda qanoatsizlik va tama’girlik odamning boshiga ne savdolar solishi mumkinligi tasvirlangan.

Kaykovus asarda insonni komillikka yetaklovchi barcha fazilatlar to‘g‘risida so‘z yuritadi, ushbu fazilatlarni har bir inson o‘zida takomillashtirib borishi zarurligi

yuzasidan pand-nasihat qiladi. U aql haqida so‘z yuritar ekan, agar odamda tug‘ma aql bo‘lmasa, imkoniyatining boricha bilim olishga harakat qilmog‘i lozimligini uqtiradi. Kaykovus ma’naviy boylik moddiy boylikdan ustun turishini, ma’rifatli, aqlli va bilimdon insonlar yuksak darajada qadrlanishini ta’kidlaydi. Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she’r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi. Jumladan, 3-sinf o‘qish kitobida “Go‘zal fazilat – inson husni” nomi bilan quyidagi parcha keltirilgan: “Farzand aqlli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota-onaning ko‘nglini sal bo‘lsa-da ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo‘ladi. Ko‘rdingki, ota-onsi seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazdi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiliginini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi”.

Asarda farzand tarbiyasi, ota-onani hurmatlashdan tortib kundalik va katta hayotda kishi yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan kamchiliklardan ogohlantirish va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga doir qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, yoshlarni hayotga tayyorlashda asqotadigan nazariy masalalarni amaliy tadbipi bilan keltirilgan hikmatlar bilan boyitilgani bois zerikish uyg‘otmaydi. Kitobxon mutolaa qilgani sari olam-olam ma’no mazmun va ezgu insoniy fazilatlarga yetaklovchi kuch topadi. Bundan tashqari, asardagi har bir fikr va tushunchalar biz farzandlarni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIK VA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI. “Qobusnama” rus va G‘arb sharqshunoslarining, Sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini anchadan beri o‘ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg‘ur (1786), nemis (1811), o‘zbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida, yana bir qo‘lyozma nusxasi Sankt Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida saqlanadi. “Qobusnama”ning Subutoy Dolimov tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilgan nusxasi Toshkentda 3 marta nashr qilingan. Asardagi tasavvufiy qarashlar Ibrohim Haqqul[3] tomonidan tahlil qilingan. U. Ibaydullayeva, E. Tursunovalarning izlanishlarida “Qobusnama” asarining bugungi kundagi ahamiyati, unda bayon etilgan oila boshqaruvi, farzand tarbiyasi, ota-onsi o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim tarbiya berish, jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida kamolotga yetkazish kabi dolzarb masalalar xususidagi fikrlar bayon etilgan[8-9.]

XULOSA. Yosh kitobxonlarimiz bo‘sh vaqtlarida bunday didaktik mazmundagi asarlarni o‘qisalar, uning mazmun-mohiyatini ilg‘ab, o‘z hayot yo‘llarida qo‘llay olsalar, tafakkur olamlarini boyitadilar. Chunki jamiyatning yuksalishi, ertangi kunimizning tinch va obod bo‘lishi, bugungi yoshlарimiz olayotgan, o‘zlashtirayotgan ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Qaysi oilada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha

oilada ahillik, mehr-oqibat to‘kis bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan Kaykovusning “Qobusnoma” asari yoshlarni hayotga tayyorlashda va ularni har tomonlama kamolga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Кайковус Унсурулмаолий. Қобуснома. –Т.: Истиқлол, 1994. – 173 б.
2. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. – Buxoro: Durdona, 2019. – 420 b.
3. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.
4. Gulbahor Raximova (2023, April). O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI. In "Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 33-36).
5. Qarshiyevna R. G. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. "ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).
6. Raximova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2022. – 308 b.
7. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy - uslubiy izlanishlar. –T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 2009. –135 b.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammad-sodiq-qoshg-ariyning-pedagogik-qarashlari>
9. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/9119/6404/218>